

ALISHER NAVOIYNING “ASHRAQAT MIN...” G`AZALINING  
TASAVVUFIY TALQINI

*O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi 2-sonli Toshkent akademik  
litsey oliy tarix fani o'qituvchisi*  
**Sobirov Zafar Karimovich**

**Annotatsiya:** *Maqolada Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun mo'ljallangan adabiyot (majmua) kitobida Alisher Navoiyning qirqta turli-tuman mavzudagi g'azallari berilgan bo'lib “Ashraquat min...” g'azalining tasavvufiy talqini keng yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Sharq Renessansi, Alisher Navoiy, Maxsud Shayxzoda, Tasavvuf ta'limoti, g'azal*

Alisher Navoiy XV asr Sharq Renesansining (uyg'onish davrining) buyuk vakili deb tan olingan. Undan bizgacha yetib kelgan adabiy meros o'zining ko'lami, janrlarining turli – tumanligi, badiiyati bilan kishini hayratda qoldiradi. Birgina uning g'azalchilikda amalga oshirgan ishlarining o'zi olamshumul voqea hisoblanadi. Maqsud Shayxzoda uni “G'azal mulkinging sultoni” deya ta'riflaganda nechog'li haqli edi. Navoiyi suxandon yaratgan g'azallar badiiy san'atlarning rango – rangligi, vaznlar xilma – xilligi, mavzusi bilan betakrordir.

Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun mo'ljallangan adabiyot (majmua) kitobida shoirning qirqta turli-tuman mavzudagi g'azallari berilgan. Dars jarayonida bu g'azallarni tahlil etish adabiyot fani o'qituvchilariga ba'zi qiyinchiliklarni tug'diradi. Bunga sabab g'azallar sonining ko'pligi hamda ijodkor fikrlarining murakkabligida.

Uning “Ashraquat min ...” deb boshlanuvchi g'azali ham fikrimizning dalilidir. Bu g'azal sof tasavvufiy yo'nalishda yozilgan bo'lib, lirik qahramonning Ollohga bo'lgan yuksak ishq-muhabbati haqida. “Ashraquat min...” deb boshlanuvchi bu g'azalda ifodalangan ma'no-mazmunni anglash uchun Sharqda ma'lum va mashhur tasavvuf ilmi hamda unga tegishli bo'lgan istilohlardan xabardor bo'lish lozim.

Olimlarimizning ma'lumot berishicha, Tasavvuf insonning ilohiyotga munosabatini va umuman, yashamoqning ma'no-maqsadini o'ziga xos tarzda talqin etuvchi ma'naviy, diniy, falsafiy birlikdagi ta'limot tizimidir.

Komil inson bo'lib yetishishga intilish va shu maqsadda uning ta'limotida belgilangan yo'llarni bosib o'tish zarurati tasavvufning asosiy muddaosidir. Bu yo'lda tasavvuf ahli shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat deb atalmish to'rt asosiy



bosqichdan o'tishlari lozim. Tasavvufda diniy asos va diniy dunyoqarash kuchli . Uning xulosalari g'oyalari bu asosning o'ziga xos kuchli istaklari bilan to'yinishi tabiiy hol.

Lekin , shunga qaramay, tasavvufni faqat butkul diniy qarashlarga bog'lab qo'ymaslik kerak . Tasavvufning tub mohiyati ma'naviy –axloqiy muammolarga va komil inson tarbiyasiga daxldor ekani barchamizga ma'lum. Aslida islom g'oyalarining tub mohiyati uning insonparvarligida , hayotiyligida, axloqiy-ma'naviy kamolotni targ'ib etishi , himoya qilishi va uning uchun kurashuvida .

Tasavvuf maqsadlari o'z talablari va orzulari bilan chambarchas bog'langan tasavvuf adabiyotini yuzaga keltirdi. Ko'p asrlik taraqqiyot yo'llari davomida bu adabiyotning g'oyalari , obrazlari, san'atlari va tasavvufiy istilohlarni bilish , badiiy san'atlarning ma'no-mohiyatini anglash talab qilinadi. Quyidagi bayt kishining diqqatini o'ziga jalb qiladi.

Ashraquat min aksi shamsil-ka'si anvorul hido,

Yor aksin mayda ko'r deb , jomdin chiqti sado.

Ushbu baytda ifodalangan yor, may, jom qanday ma'noni anglatadi? Ularni to'g'ridan to'g'ri tushinish kerakmi yoki majoziy ma'nodami? Alisher Navoiy bu nomlarni o'z baytlarida qo'llab qanday fikr bildirmoqchi?

Bu o'rinda Yor-Oллоh, jom- qalb, may- Oллоhga bo'lgan ishq ramzidir. Bizga ma'lumki, tasavvuf she'riyatida ishq ikki turda talqin etiladi : majoziy ishq, haqiqiy ishq. Insoniy muhabbat, real ishq- majoziy; insonning Oллоhga bo'lgan ishq boqiy va o'lmas ishq sifatida talqin etiladi. Bundan ma'lum bo'ldiki, bu baytlarda Oллоhga bo'lgan ishqni, muhabbatni ko'ngilda joylamoqlik haqida so'z boryapti.

G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am ,

Yo'qtur , ey soqiy , mayi vahdat masallik g'amzudo.

Ey oshiq, bu dunyoning kurguliklari ko'nglingni g'amga botirsa, vahdat mayidan yaxshiroq may yo'qki, uni tarqata oladigan. Bu o'rinda vahdat mayi- oллоhning visoliga yetkazuvchi ishq tarzida ifodalangan. Soqiy- aslida may quyuvchi , tasavvufiy istiloh sifatida – piri komil (ustoz) ma'nosini anglatadi.

Ey, xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'an safol,

Jom o'lur getinamo Jamshid, ani ichkan gado.

U shunday bir go'zal ishqki, ko'ngil uni o'zida jo qiladigan idish, jom. Bu jom olamni ko'rsatuvchi, Jamshid (qadimda yashab o'tgan , o'zining oqilligi, donoligi bilan dong taratgan shoh ) esa esa uni ishgan gadodir.

Jom-u may gar bo'yladur, ul jom uchun qilmoq bo'lur,

Yuz jahon har dam nisor , ul may uchun ming jon fido.



Bunday jom-u may uchun yuz jahonni hamda ming jonni-da qurbon qilsang, arziydi.

Dayr aro hush ahli rasvo bo`lg`ali , ey mug`bacha,  
Jomi may tutsang meni devonadin qil iptido.

G`azalning beshinchi baytida lirik qahramon dayr aro- oqil, dono kamolotga yetgan kishilarning ilohiyot, Ishq haqida majlis quradigan , suhbatlashadigan joyga kirib, mug`bachaga- may tashuvchi bolaga murojaat qilib, jomda may tutsa, eng avvalo unga uzatishini so`raydi.

Vahdate bo`lg`ay muyassar may bila jom ichrakim,  
Jom-u jam lafzin degan bir ism ila qilg`ay ado.

Agar jomda- oshiqning qalbida may-Ollohning ishqı limo-lim bo`lsa, albatta, u vahdatga - Ollohning jamoliga erishadi.

Sen gumon qilg`andin o`zga jom-u may mavjud erur,  
Bilmayin naf etma bu mayxona ahlin, zohido.

Zohiddan (din peshvosidan) lirik qahramonning bir o`tinchi bor, bu baytlarni o`qib mayxona ahlini- oqil, dono kamolotga yetgan kishilarni ilohiyot, Ishq haqida majlis quradigan , suhbatlashadigan insonlarni ayblab o`ltirma, sen o`ylayotgan haqiqiy may va jomdan ham tashqari bu so`zlarning ma`nosi bor. Ollohning ishqı va uni o`ziga jo qilib olmoqchi bo`lgan qalb haqida so`zlayapman degandek go`yo.

Tashnalab o`lma , Navoiy chun azal soqiysidin,  
“Ishrabu, yo ayyuhal-atshon” kelur har dam nido.

Ey Navoiy , azaliy, abadiy ishqdan tashna bo`lib o`tmaki, bu dunyoga kelgan inson undan qonib- qonib ichmog`i , bahramand bo`lmog`i darkor.

Sartlar uzra ko`z yugurtirar ekansiz, bu Zotning fikrlaridan, badiiy topilmalaridan qayta-qayta hayratga tushaverasiz. So`z podshosining fikrlarini uqish uchun, mag`zini chaqish uchun , qalbda makon qurishi uchun ko`ngil ichra sarosar kezaverasiz-kezaverasiz.

